



USLUBIY XATOLAR TAHLILIDA ZAMONAVIY USULLARDAN FOYDALANISHNING AMALIY AHAMIYATI

Nazokat Jiyanova

O'zDJTU O'zbek tili va adabiyoti kafedrasida dotsenti, f.f.n.

Ag'abekov Oljas Musabekuli

M.Avezov nomidagi Janubiy Qozog'iston universiteti doktoranti

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.17450506>

Annotatsiya: *Ushbu maqolada adabiy til me'yorlariga amal qilmaslik turli xil uslubiy xatoliklarni keltirib chiqarishi, ularni bartaraf etishda zamonaviy usullardan foydalanishning amaliy o'rni misollar asosida izohlangan. Shuningdek, fan mavzularini tahlil etishda o'qitishning zamonaviy usullarining ahamiyati, ulardan foydalanishning natijalari, talabalar faolligini oshirishdagi amaliy o'rni haqida ham fikr yuritilgan.*

Kalit so'zlar: *til, ta'lim, yangi usullar, zamonaviy pedagogik texnologiya, "Tushunchalar tahlili", "Muammo" texnologiyasi, metod, usul, vaziyat, vazifa.*

Bizga ma'lumki, har bir til o'z lug'at boyligiga, tovushlar tizimiga, grammatik va sintaktik qonun-qoidalariga ega. Til va nutqning farqlari, til bo'limlari va nutq uslublari, ularning barchasi adabiy tilning muhim, o'rganilishi lozim bo'lgan jihatlaridir. Til rivojiga hissa qo'shmoqni istagan har bir shaxs fikr ifodalashda foydalanayotgan tilning imkoniyatlarini, unda mavjud til birliklarining o'ziga xos tomonlarini yaxshi bilishlari va adabiy til me'yorlariga amal qilgan holda to'g'ri qo'llay olish ko'nikmasiga ega bo'lishi lozim. Adabiy tilning me'yoriy qonun-qoidalaridan o'rinli foydalanish esa fikr ifodalash jarayonidagi turli xil xatoliklarning oldini olishga yordam beradi, shuningdek, ravon va aniq fikr ifodalash ko'nikmasini shakllantiradi. Shuning uchun ham doimo adabiy til qonun-qoidalariga asoslangan holda muloqot jarayonini amalga oshirishga harakat qilishimiz, o'z xatolarimiz ustida ishlashimiz shart. Ayniqsa, Yangi O'zbekistonimizning kelajagi bo'lgan yoshlar nutqining adabiy til me'yorlariga asoslangan holda shakllanishiga amaliy ko'mak berishimiz darkor.

Adabiy til qonun-qoidalarini bilmaslik, me'yordardan chetga chiqish turli xil uslubiy xatolarni yuzaga keltiradi. "O'zbek tilining amaliy uslubiyati" fani til va nutq vositalaridan o'rinli foydalanishga, turli matnlarni tahlil etishga, nutqning vazifaviy uslublarni bilishga va uslubiy xatolarni qilmaslikning qonun-qoidalarini, usul va yo'llarini o'rgatadi.

Ma'lumki, adabiy til sathlarining har biri o'z uslubiy (qo'llanish) xususiyatlariga, me'yoriy qonun-qoidalariga ega. Ularning ilmiy va nazariy jihatlarini bilmaslik turli xil xatolarning ko'payishiga olib keladi. Bizga sir emaski, bugungi



kunda matbuotda ham, gazeta-jurnallarning sahifalari orqali chop etilayotgan mavjud maqolalarda ham, reklama va e’lonlarda ham turli xil xatoliklarni uchratamiz. Bu esa til sathlarining o’ziga xos jihatlarini bilmasligimizdan dalolat beradi. Ayniqsa, tarjima qilingan reklama va e’lonlarda buni ko’plab kuzatishimiz mumkin. Fanda bunday xatoliklarga yo’l qo’yishning quyidagi sabablari ko’rsatib o’tilgan:

1. Fonetik uslubiyatdagi uslubiy xatolar. Bunday xatoliklar og’zaki nutqda o’zlashma so’zlar tarkibidagi tovushlarni to’g’ri talaffuz etolmaslik, fikr berish jarayonida so’z urg’usini ifodalay olmaslik, doimo muloqot birligi sifatida sheva elementlaridan ko’p foydalanish oqibatida yuz beradi. Masalan: bor – bo, tog’– tov, keldi – kelli, ketdi – ketti, Toshkent –Toshkan, go’sht – go’sh, aylanmoq–aynalmoq, shanba – shammi, fabrika – pabrika, xursand – xursan kabi. Bunday xatoliklarni og’zaki nutqda ko’p qo’llash natijasida yozma nutqqa ham ta’sir etadi. Keltirilgan xatoliklarning oldini olish uchun og’zaki nutq talaffuzini to’g’rilash va nutq jarayonida so’zlar tarkibidagi tovushlarni talaffuziga e’tibor berishimiz lozim. Ayniqsa, oliy ta’limda uslubiy xatolar ustida ishlashni yo’lga qo’yishimiz, imlo qoidalarimizdagi farqlarni tahlil etishimiz darkor. Shundagina fonetik uslubiy xatoliklarning oldi olinadi. Talabalar nutq ifodalashdagi fonetik xatolarni to’g’ri anglab olishadi.

O’qituvchi talabalar bilan fonetik uslubiyatdagi uslubiy xatolarni tahlil etishda o’qitishning zamonaviy usullaridan “Muammo” va “Tushunchalar tahlili” metodlaridan foydalanishi mumkin. Bu jarayonda badiiy matnlarda qo’llanilgan fonetik hodisalardan misollar keltirish va to’g’ri variantini belgilash kabi topshiriqlardan foydalanilsa, talabalarda fonetik uslubiyatdagi uslubiy xatoliklarning mohiyatini to’g’ri tushungan holda tahlil etish ko’nikmasi shakllanib boradi. Bizga ma’lumki, yozuvchi badiiy asarlarda obraz nutqida uchraydigan fonetik, leksik, grammatik, sintaktik hodisalarni uslubiy vazifaga xoslagan holda aynan keltiradi. Shuning uchun ham talabalar bilan uslubiy xatoliklar bo’yicha tahlil etishda badiiy matnlardan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Xatoliklar	To’g’ri varianti va izohi
–Toshkanga ketaturib ham shuni so’rovding, darrov unutdingmi? [4.65.]	–Toshkentga ketaturib ham shuni so’ragan eding, darrov unutdingmi? Bu gap tarkibidagi Toshkanga so’zida tovushlar to’g’ri talaffuz etilmasligi oqibatida fonetik uslubiyatdagi uslubiy xatolik yuz bergan.
–Ertamatanga dovur likobcha chertib ashula qilib beradi... [4.65.]	–Ertalabga qadar likobcha chertib ashula aytib beradi... Bu gap tarkibida ertamatanga so’zi fonetik



jihattan dovur so‘zi leksik jihatdan xató yozilgan.

2. Grammatik uslubiyatdagi uslubiy xatolar. Grammatik uslubiyatda, asosan, kelishik qo‘shimchalarini, shuningdek, so‘z yasovchi qo‘shimchalarni o‘z o‘rnida qo‘llamaslik orqali uslubiy xatolar kelib chiqadi. -ga, -da, -ni, -ning, -dan kelishik qo‘shimchalari, -li, -lik kabi ko‘plab so‘z yasovchi qo‘shimchalarni o‘z o‘rnida ishlatmaslik og‘zaki va yozma nutqda bir xil grammatik xatolarga olib keladi. Bunday xatoliklarga yo‘l qo‘ymaslik uchun adabiy tilning grammatik me‘yorlarini bilishimiz va unga amal qilgan holda fikr ifodalashga o‘rganishimiz lozim. Biroq OAV tilida ham tarjima asar va reklamalarda ham grammatik xatoliklarni kuzatishimiz mumkin. Bu kabi xatoliklarni oldini olish uchun oliy ta‘limda grammatik uslubiy xatoliklar bo‘yicha talabalarga qo‘shimcha topshiriqlar berish lozim. Shunda talabalar OAV tilidagi xatoliklarni topishadi va tahlil etishadi. Tahlil etish jarayonida qo‘shimchalar bilan bog‘liq xatoliklarni bilib olishadi. Grammatik uslubiy xatoliklarni tahlil etishlarida ham o‘qitishning zamonaviy usullaridan foydalanish mumkin. Shuningdek, yozuvchi tomonidan obraz nutqida berilgan grammatik xatoliklardan misol keltirgan holda tahlil etish ham mumkin.

Xatoliklar	To‘g‘ri varianti
– Senda gapim bor poyezdga aytaman (So‘zlashuvdan)	— Senda gapim bor poyezdga chiqqanimdan so‘ng aytaman. Bu gap tarkibidagi senda -da kelishik qo‘shimchasi -ga o‘rnida qo‘llanilgan grammatik uslubiyatdagi uslubiy xatolik yuz bergan.
Ko‘pincha bu biz ongimiz kengayotgan, idrokimiz to‘lishayotgan paytda sodir bo‘ladi. [5. 2015,180.].	Ko‘pincha bu biz (ning) ongimiz kengayotgan, idrokimiz to‘lishayotgan paytda sodir bo‘ladi. Bu gap tarkibida bizning -ning qaratqich kelishigi qo‘llanilishi kerak. Grammatik uslubiy xatolik mavjud.
Ichingizda toshayotgan quvvat sizni oldinga undaydi, chorasizlikdan chiqib ketgach esa vaziyat o‘zgaradi, kechagi tushkun bugun olam-olam quvonch bilan almashinadi! [5. 2015, 180.].	Bu gap tarkibida tushkun so‘zi tarkibidagi -lik qo‘shimchasi tushib qolgan. Grammatik uslubiy xatolik yuz bergan.

3.Leksik uslubiyatdagi uslubiy xatolar. Biz bilamizki, leksik uslubiyatda so‘z qo‘llash bilan bog‘liq bo‘lgan xatoliklarimiz mavjud. Bularga so‘zni noto‘g‘ri tanlash, nutqda so‘zlarning o‘zaro bog‘lanishini buzish, nutq jarayonida kerakli so‘zni tushirib qoldirish, aksincha, ko‘p so‘zlilik, sinonimlardan noto‘g‘ri foydalanish, antonimlardan foydalanishda yo‘l qo‘yiladigan uslubiy xatoliklar, ko‘p ma‘noli so‘zlar va omonimlarni noto‘g‘ri qo‘llash, paronimlarni o‘zaro farqlay



olmaslik, uslubiy bo‘yoqdor so‘zlarni to‘g‘ri qo‘llay olmaslik, dialektizmlarni o‘rinsiz qo‘llash, professional nutqqa (kasb-hunarga) oid so‘z-terminlarni, jargonlarni nutqda o‘rinsiz qo‘llash, eskirgan so‘zlar ma‘nosini bilmaslik, neologizmlarni noto‘g‘ri qo‘llash, chet tillardan qabul qilingan so‘zlarni nutqda o‘rinsiz ishlatish, iboralardan noto‘g‘ri foydalanish orqali yuz beradi.[2.157.].

Bularning barchasidan o‘rinli foydalanilmasa, fikr mantiqiyligi va nutq ravonligi buziladi. Shuning uchun ham so‘zlashuv jarayonida adabiy til me‘yorlariga amal qilish zarur. Talabalarga leksik uslubiyatdagi uslubiy xatoliklar bo‘yicha qo‘shimcha vazifalar berishda zamonaviy usullardan foydalanish lozim. Masalan, “Konseptual jadval” grafik organayzeridan foydalanish mumkin. Bu texnologiya asosida o‘tilgan fan mavzularining nazariy jihatlarini talabalar tomonidan o‘zlashtirilganligini nazorat qilish maqsadida foydalanish mumkin. Bunda talabalar olgan bilimlarini o‘qituvchi tomonidan shakllantirilgan savollar asosida yozishadi. Leksik uslubiyatdagi uslubiy xatolarni tahlil etishda ham bu texnologiyadan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Buning uchun jadvalning birinchi qatoriga badiiy matnlardagi, gazeta, jurnallar, reklamalardagi leksik xatoliklar beriladi. Ikkinchi qatoriga talabalar to‘g‘ri variantini shakllantirishadi. Xatolik va to‘g‘ri variant bo‘yicha izohlashadi.

Leksik uslubiyatdagi uslubiy xatolar		
Matn	To‘g‘ri varianti	izohi
Chanoqlarda lo‘ppi ochilgan paxtalar quyoshda yarqirab kumushdek toblanadi.	Chanoqlarda lo‘ppi ochilgan paxtalar quyoshda yarqirab kumushdek tovlanadi.	Toblanmoq-tovlanmoq. Paronimlik bilan bog‘liq xatolik mavjud.
Yosh olimlar ilm-fan borasida o‘zaro bellashdilar.	Yosh olimlar ilm-fan borasida o‘zaro baxslashdilar.	So‘z qo‘llash bilan bog‘liq xatolik mavjud. bellashmoq-baxslashmoq

4. Sintaktik uslubiyatdagi uslubiy xatolar. Bunda gap tuzishda uslubiy xatoliklarga yo‘l qo‘yiladi. So‘zlashuvdagi tezkorlik natijasida og‘zaki nutqda so‘zlarning gapdagi o‘rnini almashtirib qo‘llash oqibatida yuzaga keladi. Shuningdek, noo‘rin takrorlar, talaffuzni me‘yorga moslamaslik oqibatida ham nutqda g‘aliz jumlar yuzaga keladi. Buning uchun fikr ifodalayotgan tilning sintaktik qonun-qoidalariga amal qilish, o‘rinli va to‘g‘ri gap tuzish ko‘nikmasiga ega bo‘lish lozim. Badiiy asarlarda yozuvchi nutqimizdagi ana shunday xatoliklarni obraz nutqi orqali ifodalaydi. Masalan, Ketimdan otilmish kosov darvoza taraqlab tegadi.[4.Internet manba]. Sintaktik uslubiyatdagi uslubiy xatolarni tahlil etish uchun talabalarga qo‘shimcha topshiriqlar beriladi. Bu topshiriqni bajarishlari uchun ular



badiiy asarlarga, gazeta-jurnallarga murojaat etishadi. Topgan misollarini o‘qitishning zamonaviy usullari yordamida tahlil etishadi.

Sintaktik uslubiyatdagi uslubiy xatolar		
Matn	To‘g‘ri varianti	izohi
Ketimdan otilmish kosov darvoza taraqlab tegadi. (4.Internet manba).		
Muharrir bo‘lib ishlayman jurnalda.		

“O‘zbek tilining amaliy uslubiyati” fanida “Uslubiy xatolar va ularni bartaraf etish yo‘llari” va “Ommaviy axborot vositalari tili tahlili” mavzulari o‘tiladi. Mavzuni tahlil etishda, bugungi kunda ommaviy axborot vositalari, shuningdek, reklamalar tilidagi xatoliklar tahlil etiladi. Talabalarga bunday xatoliklarning ko‘payib ketish sabablari mavjud misollar asosida yoritib beriladi. Talabalar ham matbuot tilida mavjud xatoliklarni topib kelishadi va o‘z fikr-mulohazalarini bildirishadi. Bunday tahlil jarayoni o‘qituvchi uchun ham talabalar uchun ham amaliy ahamiyatga ega. Chunki talabalar gazeta-jurnallarni o‘qish jarayonida o‘z xatoliklarini ham tushunib borishadi. Turli xil xatoliklarga yo‘l qo‘ymaslikka harakat qilishadi. Kitob yoki gazeta-jurnallarni o‘qish va ularga munosabat bildirish ko‘nikmasiga ega bo‘lishadi. Bularning barchasi talabalarning og‘zaki va yozma savodxonligini shakllantiradi. Shuning uchun ham bunday mavzularni o‘tishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan ham o‘rinli foydalanish ijobiy natijalarga olib keladi. Masalan, Uslubiy xatoliklarning kelib chiqish sabablarini tahlil etishda “Muammo” texnologiyasidan foydalanish mumkin. [2. 158].

Bizga ma‘lumki, “Muammo” texnologiyasining asosiy maqsadi talabalarga o‘quv predmetining mavzusidan kelib chiqqan turli muammolar, tahlilga muhtoj masalalar yoki vaziyatlarning yechimini to‘g‘ri topishga o‘rgatish, muammoning mohiyatini aniqlash bo‘yicha malakalarini shakllantirish, har qanday muammoli vaziyatlardan chiqib olishlariga yordam berishdan iborat. Bu jarayonda o‘qituvchining faolligi, ilmiy qarashlari va to‘g‘ri tushuntirib bera olish mahorati muhim o‘rin tutadi.

Mashg‘ulotni o‘tkazishda talabalarni ikki katta guruhga yoki bir nechta kichik guruhlariga ajratadi va mashg‘ulotning tartib-qoidalarini tushuntiradi. O‘qituvchi tayyorlab kelgan turli xildagi tarqatma materiallardan yoki doskadan foydalangan holda olib borishi ham mumkin. Agar o‘qituvchi doskadan foydalansa, unda



xatolarning kelib chiqish sabablari, muammolari yoziladi. Shunda guruhga bo‘lingan talabalar muammoning sabablarini birin-ketin doskaga yozishadi. Eng ko‘p to‘g‘ri fikr bergan guruh talabalari g‘olib bo‘ladi. Agar o‘qituvchi tarqatma materiallardan foydalansa, unda kichik guruhlarga bo‘lingan talabalar o‘z kartochkasiga muammolarning turini, kelib chiqish sababini, uning yechimida talabaning harakatlarini, muammoni yechishda uchraydigan to‘siqlar xususida o‘z fikr-mulohazalarini yozadi. O‘qituvchi esa tarqatma materiallarni yig‘ib oladi va talabalarga o‘qib bergan holda to‘g‘ri va noto‘g‘ri javoblarni aniqlab boradi. To‘g‘ri fikr bergan va texnologiya qoidasiga mos variantlar sanaladi va talabalar baholanadi. Agar o‘qituvchi har bir talabaning fikrlari bilan qiziqsa, texnologiyaning shartlari asosida tarqatma materiallarni ko‘paytirishi, har bir talabaga alohida tahlil etishlari uchun berishi ham mumkin. Bunda har bir talabaning mavzu yuzasidan bildirgan mustaqil fikridagi xato va kamchiliklar guruh o‘rtasida o‘qib beriladi va o‘qituvchi tomonidan to‘g‘ri variantlar ko‘rsatilgan holda baholanadi.

O‘qituvchi har bir talabani baholash imkoniyatiga ega bo‘lmasa, unda kartochkalarni uyga vazifa qilib berishi ham mumkin. Bunday vaziyatda har bir talaba o‘z fikr-mulohazalarini erkin, ijodiy yondashgan holda ifodalash imkoniyatiga ega bo‘ladi. Bunday tahlil usuli o‘qituvchi uchun ham talaba uchun ham qulaydir. Shunda guruhdagi talabalarning barchasi baholanish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Talabalar uslubiy xatoliklar haqidagi fikrlarini o‘zlari topib kelgan misollar asosida tahlil etishadi. Bunday o‘qitish usuli orqali talabalarning yozma va og‘zaki nutqini to‘g‘ri ifodalashlariga va savodxonlik darajasining oshishiga olib keladi. “Muammo” texnologiyasidan fan mavzularining barchasida foydalanish mumkin.[1.2013, 38.]. Buning uchun o‘qituvchi fan mavzulariga moslagan holda turli xil tarqatma materiallar tayyorlashi yoki doskaga yozgan holda guruh bilan muammo sifatida o‘rtaga qo‘yilgan masalani birgalikda tahlil etishi ham mumkin:

№	Muammoning turlari	Muammo ning kelib chiqish sabablari	Muammoni yechishda sizning harakatlarin giz	Muammoni yechishda uchraydigan to‘siqlar
1.	Imloviy savodxonlik darajasining pasayib ketishi			
2.	Tarjima reklamalardagi xatolarning ko‘payib borayotganligi			



“RAQAMLASHTIRISH DAVRIDA O‘ZBEK TILINI DAVLAT TILI VA XORIJIY TIL SIFATIDA O‘QITISH MASALALARI: MAHALLIY VA XORIJIY TAJRIBA”

MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY- AMALIY KONFERENSIYA



3.	OAVlaridagi xatolarning salbiy oqibati			
4.	Muomala madaniyatidagi so‘z qo‘llashning salbiy oqibatlari			

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, o‘qitishning zamonaviy usullari dars o‘tish samaradorligini oshirishda muhim amaliy ahamiyatga ega. Talabalar faolligini oshiradi, darsning qiziqarli bo‘lishiga olib keladi. Shuning uchun ham fanning barcha mavzulariga moslagan holda zamonaviy usullardan foydalanib dars o‘tish maqsadga muvofiqdir. Bu esa talabalarni izlanishga chorlaydi, shuningdek, og‘zaki va yozma savodxonligiga erishishda amaliy yordam beradi. OAV tiliga bo‘lgan qiziqishini oshiradi, o‘qigan manbasiga munosabat hissini shakllantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. R.Ishmuhammedov, M.Yuldashev. Ta’lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar. Toshkent, 2013- yil, 227-b.
2. N.Jiyanova. O‘zbek tilining amaliy uslubiyati. –Toshkent, 2024- yil. 495-b.
3. Tog‘ay Murod. Otamdan qolgan dalalar. Internet manba.
4. T.Malik. Ostona. –Toshkent, “Yangi asr avlodi” nashriyoti, 2017- yil, 192-b.
5. O.Turmuxammedova. Oyning yorug‘ kunlari.–Toshkent, “Yangi asr avlodi”, 2015- yil, 233-b.